

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH INNOVATION UNIVERSITY  
“USTOZ-SHOGIRD” TIZIMI TO‘G‘RISIDAGI**

# **NIZOMI**

**Urganch – 2025**



“TASDIQLAYMAN”

Urganch innovatsion university rektori

M.Ishmuratov

“yanvar” 2025-yil

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 226-sonli qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2018-yil 24-avgustdagи 18-2018-sonli qo‘shma qarorlari va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2019-yil 29-avgustdagи 781-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida ilm-fan vakillari seleksiyasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi buyrug‘i shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagи “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jallb etish va ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 4433-sonli qarorlari ijrosini ta’minalash.

“Ustoz-shogird” tizimini tashkil etishdan asosiy maqsad bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olgan har bir talabani, amaliy jihatdan kasbiy jarayonlarni mukammal o‘zlashtirib, o‘zi bajara oladigan darajadagi mahoratga ega bo‘lishi, ijodiy fikrlay olishi, odob-axloqli, ma’naviy yetuk, ziyoli bo‘lishini ta’minalashdan iboratdir. Bunda shogirdga ixtisoslik yo‘nalishi bo‘yicha kasb mahoratini, kasb madaniyatini, kasb etikasini va kasb tarbiyasini shakllantiradi.

## 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. “Ustoz-shogird” tizimi universitet rektori buyrug‘i asosida tashkil etilgan kengash boshqaradi.
- 1.2. Ustozlar va ularga biriktirilgan shogirdlar fakultet tavsiyalari asosida universitetning “Ustoz-shogird” kengashida tasdiqlanadilar.
- 1.3. Har bir ilmiy salohiyatga ega professor-o‘qituvchilarga 10nafargacha talaba biriktiriladi.
- 1.4. Ustozlar umumiyligi 4 yillik va kengaytirilgan har bir shogird uchun shaxsiy yillik rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadilar.
- 1.5. Ustozlar shogirdlarni ta’lim-tarbiya sifatiga shaxsan mas’uldirilar.
- 1.6. “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha professor-o‘qituvchilar faoliyatiga baho berish, rag‘batlantirish ushbu nizom asosida rektor buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

## 2. Ustozlarning vazifalari

- 2.1. Har bir talabaga belgilangan ustoz faoliyatni amalga oshirish uchun kengaytirilgan 4 yillik va yillik rejalarini tuzadilar. Bakalavrning ta’lim - tarbiyasi bo‘yicha quyidagi umumiy malaka talablarini ta’minalashga mas’uldir:
  - bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablarini, namunaviy va ishchi rejalarini, barcha fanlar bo‘yicha namunaviy va ishchi dasturlarni, kalendar-tematik rejalarini mukammal mazmunan o‘zlashtirishlari kerak;
  - dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
  - tarixni bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tasavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

## **2.2. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ustozning vazifalari quyidagicha taqsimланади.**

### **2.2.1. Ijtimoiy-gumanitar va umumiylar bo‘yicha ustoz vazifalari:**

- bakalavrlik yo‘nalishi bo‘yicha barcha me’yoriy hujjatlarni tahlil qilishi;
- mutaxassislik kafedrasi bo‘yicha ustoz bilan hamkorlikda kengaytirilgan va joriy rejalarini tuzish;
- kasbiy soha bo‘yicha umumiylar va gumanitar fanlardan shogirdning bajaradigan mustaqil ishlarini belgilash;
- bakalavrlik yo‘nalish, magistrature mutaxassisliklari bo‘yicha Respublikada va dunyoda tutgan o‘rni, ishlab chiqarish hujjatlari, lavozimlarga qo‘yilgan talablar, sohani rivojlanish perspektivasi kabi ma’lumotlarni to‘plash, o‘rganish, yangilab turish;
- shogirdni kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllanishi, bilim sifatini uzlusiz nazorat qilishi va baholab turishi lozim;
- shogirdni ilmiy ishlarga jalb qilishi fundamental fanlarni yo‘nalish bo‘yicha bog‘liqlik masalalarini aniqlash, ijodiy ishlar olib borishi.

### **2.2.2. Mutaxassislik kafedrasi bo‘yicha ustoz vazifalari:**

- shogirdning sohaga qiziqishini, mehrini oshirishi, uni davlat va dunyo miqyosida tutgan o‘rni, o‘ziga xos tomonlarini o‘rnatishi kerak;
- shogirdni soha yo‘nalishiga tegishli barcha uskuna va jarayonlarni to‘liq o‘rganib ishlay olishini ta’minlashi shart;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishi lozim;
- shogird bilan uzlusiz amaliy ko‘nikma, kasbiy mahoratini oshib borishini ta’minlashi, doimo o‘z ustida ishlashi, soha yangiliklarini o‘zlashtirishi, ishlab chiqarish unumini oshirish, sifatni yaxshilash bo‘yicha doimo izlanishlar olib borishiga o‘rgatishi maqsadga muvofiqdir;
- ilmiy ishlariga, BMI, texnik va texnologik yangiliklarni yaratishiga, izlanishlariga rahbarlik qilish hamda sohani yetuk mutaxassisni sifatida seminar, konferensiyalarda ishtiropi, izlanishlar natijalarini chop qilishga yordam berishlari kerak;

- tarixiy an'analarimizga sodiq bo'lishi, "eti sizniki, suyagi bizniki" naqliga asosan shogirdni mukammal bilimga, kasbiy maxorat, amaliy malakaga ega bo'lishini ta'minlashi lozim.

### **2.3. Tarbiya yo'nalishi bo'yicha ustozning vazifalari quyidagilardan iborat:**

- ilmiy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloq-odob, ma'naviy yetuklikni shogirdlarda shakllantirish;
- sog'lom turmush tarzi, adolatni e'zozlashi, amal qilishi, har tomonlama o'zini chiniqtirish, o'quv ko'nikmalarga ega bo'lishni talabalarga o'rgatish;
- bakalavrlik soha yo'nalishlariga oid ishlab chiqarishga tegishli tarixni, uni rivojlanishiga hissa qo'shgan olim va mutaxassislarning hayot tarzini, soha madaniyati, ma'naviyati va etikasini shogirdni to'laqonli bilishga, hurmat qilishga o'rgatish.

### **3. Ishni tashkil etish**

#### **3.1. "Ustoz-shogird" tizimida ustoz faoliyatining umumiyligi ish rejasi mazmuni ta'lim va tarbiya qismlaridan iborat bo'ladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha ish rejasiga quyidagilar kiritilishi maqsadga muvofiqdir:**

- 1,2-bosqichlardagi talaba-shogird bilan bajaradigan ishlar rejasi (1-ilova);
- 3,4-bosqichlarda talaba-shogird bilan bajaradigan ishlar rejasi (2-ilova);
- har bir shogird uchun alohida kengaytirilgan faoliyat rejasi tuzilib maxsus jurnal - daftarni tutiladi;
- shogirdni ijobiy, ilmiy faoliyatga jalgan qilishi, tegishli maqsadli reja asosida ish olib boradi. Iqtidorli shogirdlarni ilmiy YaMI, magistrlik va nomzodlik dissertatsiya rejalarini tuzib rahbarlik qilish rejasi;
- har bir shogird tarbiyani shaxs harakteridan chiqib kelgan holda amalga oshirishi, "O'rnak" tarbiyasiga alohida e'tibor berish talab qilinadi;
- ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha ilmiy-amaliy ishlarning qo'yilganligi, soha tarixi va madaniyati, soha etikasi xususiyatlarini o'rgatish bo'yicha tarbiya rejasini ishlab chiqish.

### **4. Ustozlarni tanlash va tayinlash**

#### **4.1. Har bir mutaxassislik kafedraning to'liq stavkada ishlaydigan professor**

- o'qituvchilar safidan ustozlar tanlanadilar. Shuningdek universitetda boshqa lavozimlarda to'liq stavkada va kafedralarda 0,5 stavka ishlaydigan professor - o'qituvchilar ham ustozlikka tanlanishlari mumkin. Istisno tarzda boshqa tashkilotlarda ishlaydigan ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan professor olimlar, kafedra faoliyatiga jalgan qilinib iqtidorli, ilmiy ish bilan shugullanuvchi shogirdlarga ustoz qilib tanlanishlari mumkin.

#### **4.2. Ustozlarni tanlash va tayinlash fakultet dekanlari rahbarligida mutaxassis kafedralalar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.**

#### **4.3. Ustozlarga biriktirilgan shogirdlar soni talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Iqtidorli talabalarning ilmiy ishlariga (dissertatsiya ishlariga) rahbarlik qilayotgan professor - o'qituvchilar ustoz qilib tayinlanadilar.**

#### **4.4. Ustozlarning ish faoliyatlari nazorati kafedra mudiri, fakultet dekani zimmalariga yuklatiladi.**

### **5.Ustozlarning huquqlari**

#### **5.1. Shogird faoliyatiga to'liq rahbarlik qilish.**

#### **5.2. Shogirdning faoliyatiga tegishli barcha ma'lumotlarni dekanatdan, Akademik faoliyat**

va registrator departamentidan olish.

- 5.3. Shogirdni o'qish va yashash sharoitini yaxshilash, tegishli rag'batlantirishlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berish.
- 5.4. Shogird bilan ilmiy maqolalar, patentlar chop etish, konferensiyalarda qatnashish kabilar.

#### **6.Shogirdning vazifa, ma'suliyat, majburiyat va huquqlari**

- 6.1. Talaba - shogirdlarni vazifasi, ma'suliyat va majburiyatları:
- tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish, yetarli darajada nazariy bilimga ega bo'lish;
  - bakalavriat yo'naliш, mutaxassisliklar bo'yicha Respublikada va dunyoda tutgan o'rni, ishlab chiqarish quvvatlari, lavozimlarga qo'yilgan talablar, sohani rivojlanish perspektivasi kabi ma'lumotlarni toplash, o'rganish, yangilab turish;
  - ma'naviy - axloqiy tarbiyasiga ma'suliyatini oshirib borish, barkamol inson bo'lib yetishish uchun o'z turmush tarzini shaxsan nazorat qilishga, do'stlari, jamoa bilan xushmuomala bo'lib har jihatdan o'rnak bo'lishi;
  - o'zlashtirish darajasi, davomati hamda ixtisosligi bo'yicha izlanishlarni muntazam kengaytirishga milliy qadriyat va an'analarni chuqur o'rganib, ularni davom ettirish;
  - kursdoshlari, talabalar o'rtasida Vatan tuygusini, milliy qadriyatlarni targ'ibotchisi bo'lib, kelajak avlodni tarbiyalashga o'zi va atrofdagilarning ma'naviy imkoniyatlarini shakllantirish;
  - shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish;
  - universitet, uning jamoasi hamda ustozasi va o'z sha'nini, milliy g'urur va e'tiqod ramzlarini ko'z qorachig'iday asrash;
  - mustaqil ta'limga chuqur e'tibor berib tanlagan ixtisosligi hamda boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarni egallab talabalik davridayoq ishlab chiqarishda o'z o'rnni topish;
  - talabalar turar joyi va universitet ichki tartib-qoidalariga qat'iy amal qilishi hamda atrofdagilarni tartibli, intizomli bo'lishga va qonun-qoidalarni hurmat qilishga chaqirish;
  - jamiyat, ustoz va ota - ona oldidagi majburiyatlarini to'la-to'kis bajarish.
  - o'qish davridagi o'z faoliyat rejasini ustozlar bilan birgalikda tuzish;
  - ilmiy laboratoriya uskunalaridan foydalanish, kompyuterda ishlash, soha yo'naliши bo'yicha korxonalarga ustoz bilan borish, amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'lish hamda ilmiy ishlar bilan shug'ullanish;
  - ustoz o'z majburiyatlarini bajarmagan hollarda shogird fakultet dekaniga yozma axborot topshiradi va o'rganilib tegishli chora ko'rildi;
  - o'quv davri mobaynida obyektiv sabablari ko'rsatilgan hollarda shogirdga rektor buyrug'i bilan ustozni qayta tanlashga ruxsat beriladi;
  - universitetdagи talaba shaxsiga va uning kasbiy, ma'naviy sifatlariga oid hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega.

#### **7.«Ustoz - shogird» faoliyatini boshqarish va baholash**

- 7.1. "Ustoz-shogird" faoliyati universitet rektori buyrug'i bilan tashkil qilingan kengash boshqaradi. Ustozlarning faoliyatlarini fakultet orqali nazorat qilinadi. Ustozlarning faoliyatlariga kafedra mudirlari va dekanlar shaxsan ma'suldirlar.
- 7.2. "Ustoz-shogird" tizimi bo'yicha universitet kengashi yillik rejalar asosida ish olib boradi.

- 7.3. Ustozlar har bir semestrda kamida bir marta kafedra yig'ilishida, fakultet ilmiy kengashida yoki universitet kengashida o'z faoliyati bo'yicha hisobot berib turadi.
- 7.4. "Ustoz-shogird" tizimida ustozlarning ta'lif va tarbiya ishlari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi:

- tuzilgan rejalarining to'liqligi;
- shogirdlarni ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha egallagan nazariy bilimlari, ayniqsa amaliy ko'nikma malakaga ega bo'lishligi;
- ilmiy ishlari sifati, chop etilgan ishlari;
- darslardagi davomati va o'zlashtirishi;
- odob-axloqi, ma'naviy yetukligi;
- ustozning "o'rnak" tarbiyasiga e'tiqod qilishi;
- shogirdni soha yo'nalishiga qiziqtirishi, rahbarlik xususiyatlarini mujassamligi kabilalar.

#### **8. Ustoz-shogirdlarga beriladigan imtiyozlar**

- Namunali faoliyat ko'rsatib, shogirdlari yuqori natijalarga erishgan ustozlar rektor buyrug'i bilan moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turiladi. Ularga ilmiy maqolalarini navbatdan tashqari chop ettirish, dam olish maskanlariga yuborish kabilarda imtiyozlar beriladi.
- Chuqur nazariy bilimga, amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'lgan shogirdlar moddiy tomonidan rag'batlantirib turiladilar. Ularga qo'shimcha "Chet tili", "Informatika", "O'zbekiston tarixi" dan darslar uyuştilirildi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasiga, hamda nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya qilinadi.
- O'quv yili natijalariga ko'ra fakultetdan bitta "Yilning eng yaxshi ustozи" va "Yilning eng yaxshi shogirdи" nominatsiyalari berilib yil davomida moddiy rag'batlantirib turiladi.

#### **9. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.**

Ushbu nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalarni universitetning "Ustoz-shogird" tizimi kengashi tomonidan amalga oshiriladi va rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor**



**M.Masharipov**

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi boshlig'i**



**A.Abdullayev**